
**Badiiy matnlarda
konseptosferaning lingvokognitiv
tuzilishi: paradigmatic
munosabatlar va konseptual
faollashuv modellari**

Zarina Murtozayeva Muxtor qizi

Zarina.murtazayeva93@mail.ru

Assisstant o'qituvchi,

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada konseptosferaning lingvokognitiv tabiati til, tafakkur va diskurs o'zaro aloqasi doirasida shakllanuvchi murakkab va ko'p qatlamli mental tizim sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot paradigmatic semantik munosabatlar – sinonimiya, antonimiya va giponimiya – konseptlarning diskursda faollashuvi, semantik kengayishi hamda baholovchi qatlamlarining yuzaga chiqishida asosiy mexanizmlar ekanligi g'oyasiga tayangan holda olib boriladi. Maqolada yadro–periferiya modeli, freym–slot tuzilmasi, konseptual dominanta va tarmoqli (network) model bir-birini to'ldiruvchi kognitiv yondashuvlar sifatida integratsiyalashadi. Ushbu modellar konseptlarning ichki semantik tashkiloti, prototipik belgilari, aksiologik yo'nalishi va madaniy shartlangan komponentlarini tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi kognitiv tilshunoslik doirasidagi yetakchi olimlar – D. Cruse, W. Croft, C. Fillmore, V. Evans, Z. Popova va I. Sternin qarashlariga tayangan. Maqolada konseptlar statik lug'aviy birliklar emas, balki diskurs jarayonida shakllanib, semantik transformatsiyaga uchraydigan dinamik kognitiv tuzilmalar sifatida talqin qilinadi. "Jinoyat" va "xiyonat" kabi aksiologik yuklangan konseptlar misolida ularning semantik, baholovchi va madaniy qatlamlari o'zaro uzviy bog'liqlikda yoritiladi va shu boradagi qarashlar ushbu maqolada o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar *Konseptosfera, kognitiv tilshunoslik, sinonimiya, antonimiya, freym semantikasi, yadro-periferiya modeli, konseptual dominanta, tarmoqli model*

**Лингвокогнитивная структура
концептосферы в
художественном тексте:
парадигматические отношения
и модели концептуальной
активации**

Зарина Муртозаева Мухтар кызы

Zarina.murtazayeva93@mail.ru

Ассистент-преподаватель,

Катакурганский государственный
педагогический институт

Аннотация *В статье рассматривается лингвокогнитивная природа концептосферы как сложного и многоуровневого ментального образования, формирующегося в языковом и дискурсивном пространстве. Анализ основан на исследовании парадигматических семантических отношений – синонимии, антонимии и гипонимии – которые интерпретируются как ключевые механизмы концептуальной активации. Особое внимание уделяется совмещению различных когнитивных моделей, включая модель «ядро – периферия», фреймовую семантику, концептуальную доминанту и сетевую (network)*

модель репрезентации значения. Теоретико-методологическую основу исследования составляют положения когнитивной лингвистики, разработанные в трудах D. Cruse, W. Croft, C. Fillmore, V. Evans, Z. Popova и I. Sternin. В статье обосновывается тезис о том, что концепты функционируют не как статические лексические единицы, а как динамические когнитивные структуры, способные к семантическому расширению и трансформации в процессе дискурсивного взаимодействия. Особое место в работе отводится анализу аксиологически маркированных концептов «преступление» и «предательство», внутренняя организация которых отражает взаимодействие семантических, оценочных и культурно обусловленных компонентов. Полученные результаты расширяют теоретические представления о концептосфере и вносят вклад в развитие когнитивной семантики и концептуального анализа текста.

Ключевые слова *Концептосфера, когнитивная лингвистика, синонимия, антонимия, фреймовая семантика, ядро и периферия, концептуальная доминанта, сетевая модель*

The Linguocognitive Structure of the Conceptual Sphere in Fiction: Paradigmatic Relations and Models of Conceptual Activation

Zarina Murtozayeva, Mukhtor kizi
Zarina.murtazayeva93@mail.ru
Assistant Lecturer,
Kattakurgan State Pedagogical Institute

Annotation *This article examines the linguocognitive nature of the conceptual sphere through the analysis of paradigmatic semantic relations and cognitive models. The study focuses on synonymy, antonymy, and hyponymy as key mechanisms of conceptual activation in language and discourse. Special attention is given to the “core-periphery” model, frame semantics, conceptual dominance, and network-based representations of meaning. Drawing on the theoretical frameworks of cognitive linguistics proposed by Cruse, Croft, Fillmore, Evans, Popova, and Sternin, the article demonstrates how concepts are structured as dynamic, multi-layered systems rather than static lexical units. The concepts of crime and betrayal are analyzed as axiologically marked conceptual formations, revealing their internal semantic organization, evaluative potential, and cultural embeddedness. The integration of frame-slot structures and network models allows for a deeper understanding of how conceptual meanings expand and interact in discourse. The findings contribute to the development of linguocognitive theory and provide a methodological basis for analyzing concept activation in fictional and non-fictional texts.*

Keywords *Conceptual sphere, cognitive linguistics, synonymy, antonymy, frame semantics, core-periphery model, conceptual dominance, network model*

Tilshunoslik nuqtai nazaridan sinonimiya paradigmatic munosabatlarning eng nozik ko'rinishidir. A. Kruz sinonimiyani "near-synonymy" ya'ni qisman sinonimlik va "absolute synonymy", mutlaq sinonimlikka ajratadi va haqiqiy lingvistik tizimlarda "mutlaq sinonim" deyarli mavjud emasligini isbotlaydi (Cruse, 1986).

Demak, sinonimlarning paradigmadagi joylashuvi ularning ma'no komponentlari farqi orqali belgilanadi. Bu farqlar esa konseptual tizimda periferik elementlarning faollashuvini ta'minlaydi. Shu bois, sinonim qatorlar konseptning ichki semantik imkoniyatlarini kengaytiradi va matnda turli darajadagi konseptual faollashuvni yuzaga keltiradi.

Sinonimik qatorlar konseptning semantik kengayishini hisobga olib aytish mumkinki, masalan, "jinoyat" konseptini – qilmish, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, qonunga xilof ish, kabi sinonimlar orqali konseptual maydonning turli aspektlari aniqlanadi. Sinonimik qatordagi har bir birlik konseptning yangi semik komponentini yuzaga chiqaradi.

Antonimlar paradigmatic munosabatning qarama-qarshi yadrosini tashkil etadi. M.L. Merfi antonimiyani "binary conceptual structuring" (Ikkilik konseptual tuzulma) deb atab, antonimik juftliklarning asosiy vazifasi konseptlarni qarama-qarshi qo'yish orqali ma'no chegaralarini aniqlash ekanini ta'kidlaydi (Murphy, 2003). Antonimlar konseptning baholovchi va aksiologik jihatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "xiyonat" konsepti "sadoqat" antonimi orqali o'z aksini topadi va konseptual akslar (opposites) tizimi yuzaga keladi.

V. Kroft va A. Kruzlarning tamoyillariga ko'ra esa antonimiya konseptual xaritaning eng barqaror qismlaridan biridir, chunki qarama-qarshilik tizimlari ongda avtomatik tarzda faollashadi (Croft, Cruse, 2004).

Demak, antonimiya badiiy matnda konseptning aksiologik, baholovchi, diskursiv jihatlarini kuchaytiradi.

Giponimiya tilshunoslikda konseptual taksonomiyaning asosiy mexanizmi sifatida izohlanadi. Lyons giponimiya tizimini "leksik ierarxiya" deb atab, har bir giperonim o'z ichida bir nechta giponimlarni birlashtirib, konseptual maydonning yadro qismiga mos kelishini ta'kidlaydi (Lyons, 1977/1995).

A. Kruz bunday ierarxik tizimlar konseptual tasnifning kognitiv modeli bilan mos kelishini, ya'ni giponimiya orqali konseptlar kategoriya-munosabatlar tizimida joylashishini aytadi. Bu jarayon badiiy matnda konseptning darajali faollashuvini yuzaga keltiradi: giperonim umumiy fon bo'lsa, giponimlar ma'no tafsilotlarini ochib beradi.

Giperonimik qatorda konseptning umumiy semantik kategoriyasi (masalan, "jinoyat" – "huquqbuzarlik"), giponimik qatorda esa uning xususiy turlari (o'g'irlik, aldanchilik, zo'ravonlik) ifodalanadi. Bu munosabatlar konseptning klassifikatsion modelini belgilaydi.

Konsept tuzilishini tavsiflovchi eng asosiy modellardan biri Popova va Sternin tomonidan ishlab chiqilgan yadro-periferiya modelidir. Ularga ko'ra, konseptning ichki mazmuni qatlamli tuzilishga ega bo'lib, yadro (tsentral zona), yaqin periferiya va uzoq periferiyadan tashkil topadi (Popova & Sternin, 2007). Yadro konseptning eng barqaror, milliy ongda mustahkamlashgan, ma'noni aniqlovchi belgilardan iborat bo'lsa, yaqin periferiya yadroga yaqin, lekin uning uchun majburiy bo'lmagan prototipik bilimlarni o'z ichiga olishi uning o'ziga xos jihatidir va uzoq periferiya konnotativ, emotsional, individual, madaniy va ijtimoiy-psixologik ma'nolarni jamlaydi.


Popova va Sternin qayd etganidek, yadro-periferiya printsipi konseptni statik emas, dinamik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi: konseptning yadrosi nisbatan barqaror bo'lsa-da, periferik qatlamlar madaniy jarayonlar, ijtimoiy o'zgarishlar, diskurs amaliyoti natijasida o'zgarib boradi (Popova & Sternin, 2007).

Shunday qilib, konseptosferaning lingvokognitiv tabiati aynan mana shu "ichki tartiblanganlik" bilan boshlanadi: har bir konsept avval o'z yadrosini shakllantiradi, so'ng u bilan bog'liq periferik ma'nolar kengayadi.

Yadro-periferiya modeli konseptning katta strukturasi berar ekan, Ch.J. Fillmor

tomonidan ishlab chiqilgan freym semantikasi konseptning ichki ensiklopedik tuzilishini ochib beradi.

Freym – bu ma'lum bir vaziyat haqidagi bilimlarning kognitiv sxemasi. Har bir freym slotlar (rol pozitsiyalari) va ularni to'ldiruvchi fillerlardan iborat.



1-rasm.

Bu slotlar konseptning bilim strukturasi tashkil etadi va uning semantik maydonining to'liq tasvirini beradi. Freym-slot modeli konseptni lug'aviy ma'nodan tashqariga olib chiqib, uni **kognitiv ssenariy** sifatida talqin qiladi (Fillmore, 1982).


Freym modeli yadro-periferiya modelini to'ldiradi, ya'ni yadro – freymning eng majburiy

slotlari bo'ladigan bo'lsa, periferiya – ixtiyoriy slotlar, konnotativ atributlar, madaniy belgilar hisoblanadi. Shu sababli konseptosfera freymlar ketma-ketligi sifatida ham tasavvur qilinishi mumkin: har bir konsept o'z "freym maydoni"ga ega.

Konseptosfera ichida ayrim leksik birliklar konseptning eng kuchli ma'nodoshi sifatida

konseptual dominanta rolini bajaradi. Dominanta – konseptual maydonning semantik markazi; boshqa birliklarni o‘ziga tortuvchi leksik “magnet”; konseptning eng yuqori frekansli va barqaror nomidir (Karasik, 2004). Konseptual dominanta yadroda joylashadi,

lekin u periferiyani tashkil etuvchi birliklarning ma’nosini ham tartibga soladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dominanta konseptning madaniy ahamiyatini, baholovchi komponentini va prototipik ssenariylarini birlashtirib turadi (Zhuravel, 2011).



2-rasm. “Xiyonat” konsepti uchun dominanta

Demak, konseptual dominanta konseptning butun strukturasi tartibga soladigan “semantik o‘q” vazifasini bajaradi.

V. Evans va M. Greening kognitiv semantika bo‘yicha tahlillari konseptlarni faqat maydonlar yig‘indisi sifatida emas, balki tarmoqli tuzilma sifatida tasvirlaydi. Ya’ni bu

yerda konsept: markaziy “prototipik ma’no”; undan radial tarzda tarqalgan ma’nolar; o‘zaro bog‘langan semantik yo‘nalishlar; metaforik va metonimik kengayishlar ko‘rinishida mavjud bo‘ladi. (Evans, Green, 2006)

V. Evans o‘z tadqiqotida tarmoq modeli quyidagilarni isbotlashini keltirib chuqur

izohlaydi, (Evans, 2019) konseptlar o'zaro bog'langan tugunlar (nodes) va har bir tugun – yadro, prototip yoki periferik ma'no bo'lishi mumkin chunki konseptosfera tarmoqli struktura bo'lganligi sababli, uning ichida semantik masofa, aloqa kuchi, uzellararo o'tkazuvchanlik mavjud. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, polisemiya ham aslida network modelning mahsuli: bir so'z bir nechta bog'langan konseptual tugunlarga ega bo'ladi.

Korpus lingvistikasining zamonaviy modellarida so'zlarning vektorli tasviri (embedding), vector semantika ham aynan shu tarmoq mantig'i tasdiqlangan (Hamilton, Leskovec, Jurafsky, 2016). Muallifning nuqtai nazariga ko'ra bu yondashuv yadro-periferiya modelini kengaytirib, yadro – markaziy tugun; periferiya – unga ulanadigan semantik yo'llar vazifasini bajaradi.

Konseptosferaning lingvokognitiv tabiati murakkab strukturaviy modelga tayangan holda talqin qilinadi. Yadro-periferiya modeli konseptning statik qatlamini ochsa, freym-slot modeli uning ensiklopedik ssenariylarini beradi, konseptual dominanta ma'nosining semantik markazini belgilaydi, tarmoq (network) modeli esa konseptlararo aloqalarni dinamik tizim sifatida ko'rsatadi. Ushbu to'rtta modelning birgalikdagi amal qilishi konseptosferani ko'p o'lchamli, tarmoqli, dinamik lingvokognitiv makon sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi.

Bu yondashuv ayniqsa "JINOYAT" va "XIONAT" kabi aksiologik konseptlar tahlilida muhim, chunki ularning yadro, frame, dominanta va tarmoq strukturalari kognitiv, madaniy va semantik jarayonlarni chuqur ochib beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Cruse, D. A. (1986). *Lexical semantics*. Cambridge University Press.
2. Cruse, D. A. (2004). *Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics* (2nd ed.). Oxford University Press.
3. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). *Cognitive linguistics*. Cambridge University Press.
4. Evans, V. (2009). *How words mean: Lexical concepts, cognitive models, and meaning construction*. Oxford University Press.
5. Evans, V. (2019). *The semantics of English: An introduction*. Edinburgh University Press.
6. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive linguistics: An introduction*. Edinburgh University Press.
7. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In *Linguistics in the morning calm*. Hanshin Publishing Company.
8. Hamilton, W. L., Leskovec, J., & Jurafsky, D. (2016). Diachronic word embeddings reveal statistical laws of semantic change. *Proceedings of the 54th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics*, 1489–1501. <https://doi.org/10.18653/v1/P16-1141>
9. Karasik, V. I. (2004). *Language circle: Personality, concepts, discourse*. Gnozis. (Transliterated from Russian)
10. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Cambridge University Press.
11. Murphy, M. L. (2003). *Semantic relations and the lexicon: Antonymy, synonymy and other paradigms*. Cambridge University Press.
12. Popova, Z. D., & Sternin, I. A. (2007). *Kognitivnaya lingvistika* (Cognitive linguistics). AST: Vostok–Zapad.
13. Zhuravel, J. (2011). Conceptual dominance in semantic structures. *Journal of Cognitive Linguistics*, 5(2), 87–101.